

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

2-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (6) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Kurbanov Eldar Ermamatovich, Qormishov Mirjalol Jumamurod o'g'li</i> O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIKNI TA'MINLASHDA MILLIY MADANIY MARKAZLARINING INSTITUTSIONAL ROLI VA VAZIFASI (Sirdaryo viloyati markazlari misolida)	11-15
<i>Djurayev Ikrom Nematovich</i> SOPOLLI-KO'ZALI ARXEOLGIK QATLAMLARIDA SHIMOLIY DASHT QABILALARINING IZLARI	16-19
<i>Акбарова Камила Шухрат кизи</i> МЕЖДУ СЕКУЛЯРИЗАЦИЙ И МОДЕРНИЗАЦИЕЙ: СОВЕТСКАЯ ПОЛИТИКА В СФЕРЕ РЕЛИГИИ В УЗБЕКИСТАНА	20-26
<i>Olimov Islombek Ulug'bek o'g'li</i> SUV TA'MINOTI TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....	27-31
<i>Sitorabonu Bobojonova</i> BUXORODA DASTLABKI MUZEYNING TASHKIL TOPISHI.....	32-36
<i>O'ralov Orzubek</i> GEOGRAFIK KASHFIYOTLARGA QADAR POLINEZIYA XALQLARINING RIVOJLANISHI VA DAVLATCHILIK INSTITUTLARINING SHAKLLANISHI TARIXI.....	37-45
<i>Qahhorov Shohjaxon Shodiyor o'g'li</i> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING TARIXIY VA MA'NAVIY TAHLILI.....	46-50

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Madartov Bahrom</i> TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA O'ZARO MUNOSABATLARNI HISOBGA OLISH ASOSIDA STRATEGIK REJALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH	51-55
<i>Xudayberdiyev Otabek Absalomovich</i> XALQARO SAVDO MUNOSABATLARIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TA'MINOT ZANJIRI VA LOGISTIKA KONTROLLINGINING ROLI	56-64
<i>Ismailova Shaxnoza Uktamovna</i> O'ZBEKISTONDA INFLYATSION BOSIM OMILLARI VA ULARNING ISTE'MOL NARXLARI INDEKSIDA NAMOYON BO'LISHI.....	65-75
<i>Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li</i> XIZMAT KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI BELGILOVCHI OMILLAR TIZIMINI ANIQLASH VA XIZMAT SIFATI QIYMAT TAKLIFI MIJOZ TAJRIBASI BREND KAPITALI HAMDA TEZKORLIK INDIKATORLARI ASOSIDA BAHOLASH	76-87

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Alimatova Nargis Abduxalilovna</i> INSON ONGINING TABIATINI O'RGANISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	88-93
--	-------

<i>Utegenova Jamila Djolmurzayevna</i> O'ZBEKISTONDA BIOETIKANING SHAKLLANISHI VA FALSAFIY ASOSLARI	94-97
<i>Mamatqulov Rashid Pazilbekovich</i> JAMIYAT YUKSALISHIDA IJTIMOY NAZORATNING ROLI.....	98-102
<i>Shadimetov Mahmudjon Negmatjanovich</i> RUHIY KAMOLOT TUSHUNCHASINING FALSAFIY MAZMUNI VA TARIXIY ILDIZLARI .	103-108
<i>Ochilov Jamshid Abdurashidovich</i> KOSMOGEN, TEXNOGEN, ANTROPOGEN SIVILIZATSIYALAR MOHIYATINING ONTOLOGIK TALQINI	109-117
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> KASABA UYUSHMALARI TIZIMIDA INSON QADRINI YUKSALTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	118-126
<i>Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna</i> ABU RAYHON BERUNIY ASARLARIDA FANLARNING INSON HAYOTIDAGI O'RNI MASALALARI	127-130
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Axmedov Oybek Saporbayevich</i> INGLIZ TILIDAGI SOLIQ-BOJXONA TERMINOLOGIK BIRLIKLARINI O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHNING STILISTIK MUAMMOLARI.....	131-139
<i>Babadjanova Nazokat</i> OGAHIYNING SO'Z VA NUTQ MASALALARIGA OID QARASHLARINING MA'RIFIY MANBALARI	140-148
<i>Xo'jamqulov Anvar Jozilovich, Tog'ayeva Shoxnoza Elmurod qizi</i> ADABIYOTIDA "ABSURD" TUSHUNCHASI	149-153
<i>Abdullayeva Rahima Raimqul qizi</i> MEDIA YORDAMIDA IMIDJNING SHAKLLANISHI VA IJTIMOY FIKR	154-161
<i>Fozilov Arabjon Nozimjon o'g'li</i> CHET TILLARINI O'RGANISHDA SO'Z YODLASHNING AHAMIYATI	162-165
<i>Sarvinov Abdiraxmonova Davron qizi, Eshtuhtarova Bibigul Bektoshevna</i> THE SIGNIFICANCE OF STUDYING GENDER REPRESENTATION IN IDIOMS AND PHRASEOLOGICAL UNITS.....	166-171
<i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i> TAVALLO IJODIDA POETIK OBRAZ YANGILANISHINING IJTIMOY-TARIXIY VA ADABIY- ESTETIK OMILLARI.....	172-185
<i>Кодирова Зарина Баходировна</i> ХУДОЖЕСТВЕННОЕ СВОЕОБРАЗИЕ ДЕТСКОЙ ПРОЗЫ ДЭВИДА УОЛЛЬЯМСА: «DEMON DENTIST», «THE FING», «GANGSTA GRANNY».....	186-191
<i>Ismatilloev Jobir</i> "FIRDAVS UL-IQBOL"DAGI QASIDALARDA HUKMDORLAR MADHI	192-197
<i>Bozorova Nasiba</i> O'LMAS UMARBEOVNING "YOZ YOMG'IRI" QISSASIDA JINOYATNI O'RGANISHDA RETROSPEKSIYA USULI	198-203

<i>Ганиева Зухра Муратбаевна</i> ВЕРБАЛИЗАЦИЯ КОНЦЕПТА «СМЕРТЬ» В РУССКОМ ЯЗЫКЕ: КОГНИТИВНО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ	204-212
--	---------

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich, Ro'ziboyev Asilbek</i> SUN'IY INTELLEKT QARORLARIDA ADOLATSIZLIK MUAMMOSI VA UNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	213-218
<i>Bazarova Dildora Baxodirovna</i> ODIL SUDLOVNI TA'MINLASHDA "RAQAMLI SUD"	219-226
<i>Babaev Djaxongir Ismailbekovich</i> КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ДОГОВОРА ПИТЬЕВОГО ВОДОСНАБЖЕНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: ПУТИ МОДЕРНИЗАЦИИ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА	227-229
<i>Azходжаева Роза Алтыновна</i> РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ СИСТЕМЫ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ.....	230-235
<i>Абдужампоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> ЭЛЕКТРОННЫЕ ДОКАЗАТЕЛЬСТВА В ДЕЛАХ О КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЯХ: ПРОБЛЕМЫ СБОРА, ФИКСАЦИИ И ПРАВОВОЙ ОЦЕНКИ	236-246
<i>Alijanov Ilhomjon Erkinjon o'g'li</i> PROKURATURA ORGANLARIGA QABUL QILISHDA NOMZODLARGA QO'YILGAN TALABLAR, XIZMATGA QABUL QILISH VA YOSH MUTAXASSISLAR BILAN ISHLASHGA DOIR FAOLIYATNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	247-253
<i>Sarsenbaeva Aynura Tenelbay qizi, Tanirbergenov Sultanbek Bazarbaevich</i> FUQAROLARNING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ VA ERKINLIKLARIGA QARSHI JINOYATLAR HUQUQIY MOHIYATI.....	254-258
<i>Qudratillayev Jaxongir Zokirjon o'g'li</i> INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING TARKIBIY QISMI	259-265
<i>Usmonaliyev Muslimbek Qurvonaliyevich</i> SPORTCHILARNI VAQTINCHALIK IJARAGA Olish SHARTNOMASINING SPORT HUQUQIDAGI O'RNI	266-272
<i>Mamadaliyev Boburjon Bahodirjon o'g'li</i> MAHALLIY BUDJETNI TARTIBGA SOLISHDA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI IJRO ORGANLARINING VAZIFALARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	273-278
<i>Umarova Xolisxon Nomoz qizi</i> KORPORATSIYA DIREKTORLARINING FUNKSIONAL VAZIFALARINI AMALGA OSHIRISH BILAN BOG'LIQ JAVOBGARLIGI CHEGARASI	279-286
<i>Yaqubova Guli Qosimboy qizi</i> VOYAGA YETMAGANLAR BILAN BOG'LIQ ISHLARNI FUQAROLIK SUDLARIDA KO'RISHDA PROKURORNING ISHTIROKI TUSHUNCHASI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI	287-294
<i>Ibrohimov Azimjon</i> XO'JALIK JAMIYATLARI BOSHQARUV ORGANLARI TIZIMIDA IJRO ORGANI: ROSSIYA FEDERATSIYASI MISOLIDA	295-301

<i>Choriyeva Xupshidabonu Xuppam qizi</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING "VASIYLIK VA HOMIYLIK TO'G'RISIDA"GI QONUNINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI.....	302-310
<i>Saidazimov Yusuf Sodiq o'g'li</i> MA'MURIY AKT. MA'MURIY AKTNING MAZMUN-MOHİYATI. GERMANIYA TAJRIBASI.....	311-316
<i>Tursunov Ilxomjon Salimovich</i> MUQADDAM SUDLANGAN SHAXSLAR TOMONIDAN SODIR ETILISHI MUMKIN BULGAN JINOIY HARAKATLARNI OLDINI OLISH VA MAXSUS PROFILAKTIKANI TAKOMILLASHTIRISH	317-321
<i>Xojanazarov Otabek Saydazimovich</i> OZODLIK DAN MAHRUM QILISH BILAN BOG'LIQ BO'LMAGAN JAZOLAR IJROSI USTIDAN PROKUROR NAZORATI: MILLIY VA XALQARO TAJRIBA.....	322-329
<i>Raxmedov Xurshid Ashrapxodjayevich</i> JINOYAT ISHINI QO'ZG'ATISH INSTITUTINING HUQUQIY TABIATI VA PROTSESSUAL AHAMIYATI	330-339
<i>Mansurova Xulkar Nabiyevna</i> FUQAROLIK PROTSESSINING TEZKORLIGINI TA'MINLASHDA SIRTDAN HAL QILUV QARORI CHIQRISHNING AHAMIYATI	340-349
<i>Begimova Nasiba Xudayberdievna</i> FARZANDLIKKA OLISH INSTITUTINING TADRIJIY RIVOJLANISHI	350-358
<i>Yo'ldoshbekov Anvar</i> NAQDSIZ HISOB-KITOB LAR VA RAQAMLI NAZORAT TIZIMLARINING HUQUQIY AHAMIYATI	359-367
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> EVRISTIK TA'LIM NAZARIYASIDA TA'LIM OLUVCHINING MUSTAQIL FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	368-372
<i>Shukurov Mirjalol Norpulatovich</i> YAKKAKURASHCHILARNI TEXNIK USULLARIGA O'RGATISHDA KLAS TER USLUBIDAN FOYDALAN HOLDA TAKOMILLASHTIRISH	373-377
<i>Tilyabayev Kamil Zaitjonovich</i> O'ZBEK TILINING O'RGANILISHI VA DEKOLONIZATSIYASIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR: (DE)KOLONIAL HIS-TUYG'ULAR, MILLAT VA O'Z-O'ZINI ANGLASH	378-383
<i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li</i> SHARQ MUTAFAKKIRLARNING FALSAFIY QARASHLARI ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA VALEOLOGIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM PEDAGOGIK OMILI SIFATIDA.....	384-388
<i>Xo'jamqulov Rasulbek Qurbon o'g'li</i> KOMPYUTER GRAFIKASI TEXNOLOGIYALARINI LOYIHA ASOSIDA O'QITISHGA INTEGRATSIYALASHNING PEDAGOGIK SAMARADORLIGI	389-393
<i>Badalov Ulug'bek Xikmatovich</i> GEOGRAFIYA FANI DARSLARIDA ONLAYN GIS TIZIMLARIDAN FOYDALANISH.....	394-398

<i>Anvarjonova Nodirakhon Nasimbek qizi</i> IS EXPLICIT GRAMMAR INSTRUCTION STILL PEDAGOGICALLY JUSTIFIED? A CRITICAL RECONSIDERATION OF ITS ROLE IN CONTEMPORARY ENGLISH LANGUAGE EDUCATION.....	399-406
<i>Imomov Fozil Shakarbek o'g'li</i> TEMPERAMENT NAZARIYASI VA INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR ASOSIDA GRAFIK FAOLIYATNI TASHKIL ETISH: PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA SAN'AT TERAPIYASI KONTEKSTIDA.....	407-412
<i>Курбанбаев Джавод Аминбаевич</i> КОГНИТИВНЫЕ И ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ОСНОВЫ ЛЕКСИЧЕСКИХ ГЛОССАРИЕВ В ЯЗЫКОВОМ ОБРАЗОВАНИИ	413-417
<i>Eshnazarova Farida Jo'raqulovna</i> JAMOADA LIDERLIK VA UNING SIFATLARI (SPORT JAMOALARI MISOLIDA).....	418-421
<i>Yuldasheva Muhayyo Alimbaevna</i> AVTOMOBILLARDA TASHISH VA HARAKAT XAVFSIZLIGINI TASHKIL ETISH FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY TA'LIM VOSITALARINING O'RNI.....	422-429
<i>Umarov Komil, Sobirov Orif, Sultanov Rustam, Egamberdiyev Abdullo</i> YUQORI MALAKALI GANDBOLCHILAR MASHG'ULOTLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	430-435
<i>Doniyorova Gulnoza Anvar qizi, Kurbanova Gulnoz Negmatovna</i> INTERAKTIV VOSITALAR VA AXBOROT RESURSLARIDAN FOYDALANISH ORQALI KASBIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI.....	436-441
<i>Nafasov Arslon Komilovich</i> PEDAGOGIK TA'LIM KLASTERI YO'NALISHIDA TARIX O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI.....	442-447
<i>Pulatova Muxabbat Egamberdiyevna, Qalandarova Sevinch Aqiljon qizi</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV SALOHIYATINI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH	448-453

Received: 15 January 2026
Accepted: 2 February 2026
Published: 14 February 2026

Article / Original Paper

ATHLETE LOAN CONTRACTS AS A LEGAL INSTITUTION IN SPORTS LAW

Usmonaliyev Muslimbek Qurvonaliyevich

Doctoral Researcher at Tashkent State University of Law

G-mail: Qurvonaliyevich@gmail.com

Abstract. The article provides a comprehensive analysis of the legal nature of athlete loan contracts and their role in sports law. It is substantiated that athlete loan contracts cannot be fully explained within traditional civil law or labor law frameworks. The study demonstrates that such contracts constitute an independent and complex institution of sports law, aimed at ensuring the continuity of an athlete's professional career and maintaining a balance of interests among sports clubs. The article also reveals that, in practice, the athlete's consent and legal status are often formal in nature, which contradicts the principles of fairness and stability inherent in sports law. Based on the analysis, scientifically grounded proposals are formulated to improve the legislation of the Republic of Uzbekistan in the field of temporary athlete loans.

Keywords: sports law, athlete loan contract, sports contract, professional athlete, sports regulations, labor law, civil law, transfer.

SPORTCHILARNI VAQTINCHALIK IJARAGA OLIH SHARTNOMASINING SPORT HUQUQIDAGI O'RNI

Usmonaliyev Muslimbek Qurvonaliyevich

Toshkent davlat yuridik universiteti doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada professional sport sohasida sportchilarni vaqtinchalik ijaraga olish shartnomasining huquqiy tabiati va sport huquqidagi o'rni kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida sportchini vaqtinchalik ijaraga olish shartnomasini faqat fuqarolik-huquqiy yoki mehnat-huquqiy konstruktsiya sifatida talqin qilish ilmiy jihatdan yetarli emasligi asoslab beriladi. Ushbu shartnomaning sport huquqiga xos bo'lgan mustaqil va kompleks institut ekanligi ko'rsatilib, uning asosiy vazifasi sportchining kasbiy faoliyati uzluksizligini ta'minlash hamda professional sport bozorida klublar manfaatlarini muvozanatini saqlashdan iborat ekani yoritiladi. Shuningdek, sportchini vaqtinchalik ijaraga olish amaliyotida sportchining roziligi va huquqiy maqomi ko'pincha formal tusga ega ekani aniqlanib, sport huquqining adolat va barqarorlik prinsiplariga zid jihatlari tahlil qilinadi. Maqolada O'zbekiston qonunchiligini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan normativ takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: sport huquqi, sportchini vaqtinchalik ijaraga olish, sport shartnomasi, professional sportchi, sport reglamentlari, mehnat huquqi, fuqarolik huquqi, transfer.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I2Y2026N38>

Professional sportda sportchilar mehnatini tashkil etish shakllarining rivojlanib borishi va murakkablashuvi so'nggi yillarda sport huquqida yangi shartnomaviy modellar va huquqiy mexanizmlarning shakllanishiga olib kelmoqda. Shunday mexanizmlardan biri sportchini vaqtinchalik boshqa sport klubiga ijaraga berish institutidir. Mazkur institut transfer tizimining tarkibiy qismi bo'lib, amaliyotda keng qo'llanilishiga qaramay, uning huquqiy tabiati va sport huquqidagi o'rni masalasi ilmiy adabiyotlarda bahsli bo'lib qolmoqda [1; 45–46].

Ilmiy manbalarda sport munosabatlarning tarmoqlararo xususiyatga egaligi, ya'ni ularning bir vaqtning o'zida fuqarolik, mehnat va sport huquqi normalari bilan tartibga solinishi ta'kidlanadi [2;12]. Ayniqsa, professional sportda shartnomaviy erkinlikning kengayishi sport federatsiyalari reglamentlari va nodavlat normativ manbalarning huquqiy ahamiyatini kuchaytirmoqda [3;78–79].

Shu nuqtai nazardan, sportchilarni vaqtinchalik ijaraga olish shartnomasining sport huquqidagi o'rnini aniqlash, uning huquqiy tabiatini ochib berish va amaliy muammolarini tahlil qilish dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi. Amaldagi O'zbekiston qonunchiligida "sportchini vaqtinchalik ijaraga olish" tushunchasi mustaqil normativ ta'rifga ega emas. Ushbu atama asosan xalqaro va milliy sport federatsiyalari reglamentlarida, shuningdek sport amaliyotida shakllangan bo'lib, u fuqarolik huquqidagi klassik ijara shartnomasidan mazmunan farq qiladi [4;101].

Vaskevichning ta'kidlashicha, professional sportda vujudga keladigan shartnomaviy munosabatlar klassik huquqiy konstruksiyalar doirasida to'liq ifodalanmaydi, chunki sport faoliyati o'ziga xos iqtisodiy va tashkiliy xususiyatlarga ega [5;63]. Shu sababli sportchini ijaraga olishni ashyolar ijarasi bilan tenglashtirish ilmiy jihatdan asosli emas. A.N. Lomov sportchini "ijaraga olish" ni futbolchilar transferining alohida, vaqtinchalik shakli sifatida baholab, mazkur munosabatlar uch tomonlama sportchi, ijaraga beruvchi klub va ijaraga oluvchi klub ishtirokida vujudga kelishini ko'rsatadi [6; 74–75]. Bu holat sportchini ijaraga olish institutining murakkab va tarmoqlararo xarakterga egaligini tasdiqlaydi.

Ayrim olimlar sportchini vaqtinchalik ijaraga olishni mehnat huquqidagi xodimni boshqa ish beruvchiga vaqtincha o'tkazish instituti bilan bog'laydilar [7; 1172]. Haqiqatan ham sportchi ijaraga berilgan davrda boshqa klub bilan mehnat shartnomasi tuzadi va mehnat funksiyasini aynan shu klub manfaatlari yo'lida amalga oshiradi. Biroq, Zavgorodniy va Axmatshina ta'kidlaganidek, sportchini ijaraga olish mehnat huquqining umumiy normalari bilan to'liq tartibga solinmaydi, chunki mazkur jarayonda sport federatsiyalarining reglamentlari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi [7; 1173–1174].

Bu reglamentlar sportchining mehnat huquqlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi, biroq ularning mehnat huquqi tizimidagi o'rni aniq belgilanmagan. Shu bois sportchini vaqtinchalik ijaraga olishni faqat mehnat-huquqiy mexanizm sifatida baholash ushbu institutning huquqiy mohiyatini to'liq ochib bera olmaydi. Zamonaviy sport huquqi doktrinasida sportchini vaqtinchalik ijaraga olish shartnomasi kompleks, ya'ni aralash huquqiy institut sifatida qaralmoqda [8; 29]. Ushbu yondashuvga ko'ra, sportchini ijaraga olishda:

- klublar o'rtasidagi munosabatlar fuqarolik huquqi normalari bilan;
- sportchi va klub o'rtasidagi munosabatlar mehnat huquqi bilan;
- ijaraning tartibi va cheklovlari sport reglamentlari bilan tartibga solinadi.

E.T. Musayev sport munosabatlariga fuqarolik-huquqiy vositalar ta'sirining kuchayishini professional sportning rivojlanishi bilan bog'lab, sport shartnomalarini klassik huquqiy modellarga tatbiq etish mumkin emasligini asoslab beradi [9; 41–42]. Mazkur xulosa sportchini vaqtinchalik ijaraga olish shartnomasining sport huquqidagi mustaqil o'rnini aniqlashga imkon beradi.

Sportchini vaqtinchalik ijaraga olish amaliyotida yuzaga kelayotgan muammolarning markazida sportchining huquqiy maqomi turibdi. Amalda sportchi bir vaqtning o'zida ham mehnat munosabatlari subyekti, ham klublar o'rtasidagi shartnomaviy kelishuvlarning

“vositasi”ga aylanib qolmoqda. Shuni ta’kidlashimiz mumkinki, sportchining roziligi mavjud bo’lishiga qaramay, u ko’pincha real tanlov imkoniyatiga ega emas. Bu holat sportchini ijaraga olish institutining ijtimoiy funksiyasini zaiflashtiradi va uni asosan iqtisodiy mexanizm sifatida ishlashiga olib keladi.

Shuningdek, sportchini muddatidan oldin qaytarib olish amaliyoti sport huquqining asosiy prinsiplari barqarorlik, adolat va sportchining kasbiy rivojlanishini ta’minlash prinsiplari bilan to’liq mos kelmaydi. Mazkur holat normativ darajada cheklanishi lozim.

Sportchini vaqtinchalik ijaraga olish munosabatlarida sportchining roziligi asosiy huquqiy shartlardan biri hisoblanadi. Biroq amaliyotda mazkur rozilik ko’pincha formal xarakter kasb etib, sportchining real manfaatlari va xohish-irodasi yetarli darajada inobatga olinmaydi. Sport federatsiyalari reglamentlarida sportchining roziligi talab etilishi ko’zda tutilgan bo’lsada, ushbu rozilikning mazmuni, uni berish tartibi va huquqiy oqibatlari aniq belgilab

qo’yilmagan

[10; 15]. Ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha, professional sportchining mehnat bozoridagi mavqeyi ko’p hollarda klublar manfaatlariga qaram bo’lib, bu holat sportchini vaqtinchalik ijaraga berish jarayonida uning erkin tanlov imkoniyatlarini cheklaydi [6; 78]. Xususan, sportchi ijara shartlari, moliyaviy ta’minot, sport rejimi va kelgusidagi sport faoliyatiga ta’sir etuvchi omillar to’g’risida to’liq axborotga ega bo’lmasdan rozilik bildirishga majbur bo’lishi mumkin.

V. Zavgorodniy va E.K. Axmatshina ta’kidlashicha, sportchining roziligini faqat shartnoma imzolanishi bilan cheklash mehnat huquqining asosiy prinsiplari xodimning erkinligi va ongli roziligi prinsipiga zid keladi [7; 1176]. Shu bois sportchini vaqtinchalik ijaraga olishda sportchining roziligini real huquqiy institut sifatida mustahkamlash zarur.

Sportchini vaqtinchalik ijaraga olish amaliyotida eng ko’p uchraydigan muammolardan biri futbolchini ijara muddati tugamasdan qaytarib olish masalasidir. Aksariyat hollarda bunday tashabbus ijaraga beruvchi klub tomonidan ilgari suriladi va sportchi manfaatlari ikkinchi darajaga tushib qoladi [11; 52].

O’zbekiston futbol assotsiatsiyasining “Futbolchilar maqomi va transferi bo’yicha reglamenti” da sportchini ijaradan muddatidan oldin qaytarib olish imkoniyati bevosita tartibga solinmagan bo’lib, bu masala asosan klublar o’rtasidagi shartnomaviy kelishuvlarga qoldirilgan [12;10-modda].Natijada sportchi:

- sport faoliyatining uzluksizligini yo’qotadi;
- mashg’ulot va musobaqa jarayonidan chetlatilishi mumkin;
- psixologik va kasbiy beqarorlik holatiga tushadi.

Xalqaro tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, sportchini qisqa muddatli va beqaror ijaralar orqali tez-tez klub almashtirish sportchining sport natijalari va professional rivojlanishiga salbiy ta’sir ko’rsatadi [13; 64–65]. Bu holat sportchini faqat iqtisodiy resurs sifatida ko’rish tendensiyasining kuchayganini anglatadi. Sportchini vaqtinchalik ijaraga olish munosabatlarida davlat mehnat qonunchiligi va sport federatsiyalari reglamentlari o’rtasida muayyan normativ kolliziyalar mavjud. Bir tomondan, sportchi xodim sifatida mehnat qonunchiligi bilan himoyalaniishi lozim bo’lsa, ikkinchi tomondan, sport reglamentlari uning mehnat huquqlariga bevosita ta’sir etuvchi qoidalarni belgilaydi [2; 19].

Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, sport reglamentlari ko‘pincha mehnat qonunchiligiga bevosita havola qilmasdan, mustaqil tartibga solish mexanizmlarini joriy etadi [8; 33]. Bu esa sportchini vaqtinchalik ijaraga olishda:

- mehnat shartnomasining amal qilishi;
- ish beruvchining almashishi;

mehnati sharoitlarining o‘zgarishi masalalarida huquqiy noaniqliklarni yuzaga keltiradi.

E.T.Musayev sport munosabatlarida reglamentlar rolini e‘tirof etgan holda, ularning davlat qonunchiligi bilan muvofiqlashtirilmaganligi sport huquqida tizimli muammolarni keltirib chiqarishini ta’kidlaydi [9;47]. Sportchini vaqtinchalik ijaraga olish shartnomalarida moliyaviy masalalar ham muhim muammolar sirasiga kiradi. Ijara to‘lovi, ish haqi kim tomonidan va qaysi miqdorda to‘lanishi, bonuslar va mukofotlar taqsimoti ko‘p hollarda shaffof bo‘lmaydi [14;91]. Ayrim holatlarda sportchining ish haqi bir qismi ijaraga beruvchi klub, bir qismi esa ijaraga oluvchi klub tomonidan to‘lanadi. Bunday murakkab moliyaviy model sportchining mehnat huquqlarini amalga oshirishda qiyinchiliklar tug‘diradi va mehnat nizolariga sabab bo‘lishi mumkin [6;82].

Shuningdek, “sotib olish opsiyasi” (option to buy) yoki “majburiy sotib olish” (obligation to buy) kabi mexanizmlar sportchini vaqtinchalik ijaraga olishni de-fakto doimiy transferga aylantirib yuborishi mumkin. Bu esa sportchining kelgusidagi huquqiy maqomini noaniq holatga soladi [15;104].

Yuqorida ko‘rib chiqilgan amaliy muammolar sportchini vaqtinchalik ijaraga olish institutining normativ jihatdan yetarli darajada aniqlashtirilmaganini ko‘rsatadi. Ushbu institut sport huquqida mustaqil o‘rin egallayotgan bo‘lsa-da, sportchining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish mexanizmlari yetarli darajada shakllanmagan [1; 49].

Shu sababli sportchini vaqtinchalik ijaraga olishni faqat klublar manfaatlarini nuqtai nazaridan emas, balki sportchining mehnat va shaxsiy huquqlarini ta‘minlash zarurati bilan uyg‘un holda tartibga solish talab etiladi.

Sportchini vaqtinchalik ijaraga olish amaliyotda keng qo‘llanilishiga qaramay, O‘zbekiston Respublikasida mazkur institutning huquqiy maqomi aniq va tizimli tarzda belgilab qo‘yilmagan. Amaldagi mehnat qonunchiligi sportchini boshqa ish beruvchiga vaqtincha o‘tkazish masalasini umumiy qoidalar doirasida tartibga soladi, biroq professional sportga xos bo‘lgan uch tomonlama shartnomaviy munosabatlar, sport reglamentlarining roli va sportchining alohida huquqiy maqomi yetarli darajada hisobga olinmagan [2; 21].

Ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha, sportchini vaqtinchalik ijaraga olishni faqat mehnat huquqiy mexanizm sifatida baholash ushbu institutning huquqiy mohiyatini to‘liq ochib bera olmaydi [6; 76]. Shu sababli sportchini vaqtinchalik ijaraga olishni sport huquqida mustaqil va kompleks institut sifatida normativ darajada tan olish zarur. Mazkur institutni aniq belgilash sportchilar, sport klublari va sport tashkilotlari o‘rtasidagi huquqiy munosabatlarda aniqlik va barqarorlikni ta‘minlashga xizmat qiladi.

Sportchini vaqtinchalik ijaraga olish munosabatlarida mehnat kodeksi asosiy davlat-huquqiy himoya vositasi bo‘lib qolmoqda. Shu bois Mehnat kodeksiga professional sportga xos bo‘lgan maxsus normalarni kiritish maqsadga muvofiq.

Xususan, Mehnat kodeksida:

- “professional sportchi” tushunchasini alohida belgilash;

- sportchini vaqtinchalik boshqa ish beruvchiga o'tkazishning maxsus tartibini nazarda tutish;
- sportchini ijaraga berishda uning real va ongli roziligini majburiy shart sifatida mustahkamlash zarur deb hisoblanadi [7; 1178].

Bundan tashqari, sportchini ijara muddati tugamasdan qaytarib olish faqat sportchining roziligi yoki sportchiga kompensatsiya to'lash sharti bilan amalga oshirilishi mumkinligi haqidagi norma kiritilishi sportchining mehnat huquqlarini himoya qilishga xizmat qiladi [9; 49].

Sportchini vaqtinchalik ijaraga olishni samarali tartibga solish faqat mehnat qonunchiligi doirasida emas, balki sport sohasiga oid maxsus qonunchilikni ham takomillashtirishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonunga sport shartnomalarining maxsus turlariga bag'ishlangan normalarni kiritish dolzarbdir. E.T. Musayev sport munosabatlariga fuqarolik-huquqiy vositalar ta'sirining kuchayishini ta'kidlab, sport shartnomalarini alohida huquqiy tartibga solish zarurligini asoslab beradi [9; 44]. Mazkur yondashuv sportchini vaqtinchalik ijaraga olish shartnomasini sport huquqining mustaqil instituti sifatida qonun darajasida tan olish imkonini beradi.

Shuningdek, sport federatsiyalari reglamentlarining huquqiy maqomini aniqlashtirish, ularning davlat qonunchiligi bilan o'zaro nisbatini belgilash muhim ahamiyatga ega [3; 82]. Sportchini vaqtinchalik ijaraga olish amaliyoti shuni ko'rsatadiki, uch tomonlama shartnomaviy model sportchi, ijaraga beruvchi klub va ijaraga oluvchi klub ishtirokidagi konstruktsiya eng maqbul huquqiy shakl hisoblanadi [6; 74]. Mazkur model:

- klublar o'rtasidagi fuqarolik-huquqiy majburiyatlarni;
- sportchi bilan bog'liq mehnat-huquqiy munosabatlarni;
- sport reglamentlari talablarini

bir vaqtning o'zida muvofiqlashtirish imkonini beradi.

Shu bois uch tomonlama sportchini vaqtinchalik ijaraga olish shartnomasining majburiy shartlari (ijara muddati, sportchining roziligi, moliyaviy ta'minot, muddatidan oldin qaytarib olish shartlari)ni normativ darajada belgilash taklif etiladi [10; 18].

Xalqaro tajriba sportchini vaqtinchalik ijaraga olish munosabatlarida sport arbitraj va maxsus nizolarni hal etish mexanizmlarining muhim rol o'ynashini ko'rsatadi [13;66]. Sport arbitraj organlari sport reglamentlari va milliy qonunchilik o'rtasidagi kolliziyalarni tez va samarali hal etish imkonini beradi.

O'zbekiston sharoitida:

- sport nizolarini hal etishga ixtisoslashgan arbitraj mexanizmlarini rivojlantirish;
- sportchini ijaraga olish bilan bog'liq nizolarni tezkor va malakali ko'rib chiqish sport huquqining institutsional rivojlanishiga xizmat qiladi [8; 35].

Yuqoridagi takliflar shuni ko'rsatadiki, sportchini vaqtinchalik ijaraga olish shartnomasi sport huquqida mustaqil, kompleks va normativ jihatdan aniqlashtirilishi lozim bo'lgan institut hisoblanadi. Uni takomillashtirish sportchilarning huquqiy kafolatlarini kuchaytirish, sport bozorida shaffoflikni ta'minlash va sport huquqining tizimli rivojlanishiga xizmat qiladi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, professional sport sohasida sportchilarni vaqtinchalik ijaraga olish shartnomasi amaliyotda keng qo'llanilayotgan bo'lsada, uning huquqiy tabiati va sport huquqidagi o'rni hali ham ilmiy va normativ jihatdan to'liq aniqlashtirilmagan. Mazkur holat sport munosabatlarining murakkablashuvi, sport bozorining

globallashuvi hamda sport reglamentlarining huquqiy ta'siri kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot davomida sportchini vaqtinchalik ijaraga olish shartnomasini fuqarolik-huquqiy ijara yoki mehnat huquqidagi xodimni vaqtincha boshqa ish beruvchiga o'tkazish instituti bilan aynanlashtirish ilmiy jihatdan asosli emasligi aniqlandi. Ushbu shartnoma o'zida mehnat, fuqarolik va sport huquqi elementlarini mujassam etgan bo'lib, aynan sport huquqiga xos bo'lgan maxsus shartnomaviy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun sportchini vaqtinchalik ijaraga olish shartnomasi sport huquqida mustaqil va kompleks institut sifatida qaralishi lozim.

Maqolada sportchini vaqtinchalik ijaraga olish amaliyotida yuzaga kelayotgan asosiy muammolar tizimli ravishda tahlil qilinib, sportchining huquqiy maqomi va roziligi ko'pincha formal tusga ega ekani aniqlab berildi. Amaliyotda sportchi ko'proq klublar o'rtasidagi shartnomaviy munosabatlarning obyekti sifatida namoyon bo'lib, bu holat sport huquqining adolat, barqarorlik va sportchining kasbiy rivojlanishini ta'minlash prinsiplari bilan to'liq mos kelmaydi. Xususan, sportchini muddatidan oldin ijaradan qaytarib olish, moliyaviy majburiyatlarning noaniqligi hamda sport reglamentlari bilan mehnat qonunchiligi o'rtasidagi kolliziyalar sportchilar huquqlarining yetarli darajada kafolatlanmasligiga olib kelmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sportchini vaqtinchalik ijaraga olish institutining samarali faoliyat yuritishi sport huquqida klublar manfaatlari bilan sportchining huquq va qonuniy manfaatlari o'rtasida muvozanatni ta'minlashga bevosita bog'liq. Mazkur muvozanat faqat sport reglamentlari orqali emas, balki davlat qonunchiligi bilan muvofiqlashtirilgan, tizimli va kompleks tartibga solish orqali ta'minlanishi mumkin.

Shu munosabat bilan maqolada O'zbekiston qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha bir qator ilmiy asoslangan takliflar ilgari surildi. Xususan, sportchini vaqtinchalik ijaraga olish institutini sport huquqida mustaqil institut sifatida normativ jihatdan tan olish, Mehnat kodeksida professional sportchilarga oid maxsus normalarni mustahkamlash, sportchining ongli va real roziligini huquqiy kafolatlash hamda sport reglamentlari va davlat qonunchiligi o'rtasidagi nisbatni aniq belgilash zarurligi asoslab berildi.

Xulosa qilib aytganda, sportchilarni vaqtinchalik ijaraga olish shartnomasi sport huquqida professional sportning zamonaviy ehtiyojlaridan kelib chiqqan, biroq hali to'liq shakllanib ulgurmagan huquqiy institut hisoblanadi. Uni ilmiy va normativ jihatdan takomillashtirish sportchilar huquqlarini himoya qilishni kuchaytirish, sport bozorida barqarorlikni ta'minlash hamda sport huquqining mustaqil va izchil huquq sohasi sifatida rivojlanishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Васкевич В.П. Гражданско-правовое регулирование отношений в сфере физической культуры и спорта. – М.: Юстицинформ, 2016. – 256 с.
2. Мусаев Э.Т. Спорт муносабатларига фуқаролик-ҳуқуқий воситалар таъсирининг замонавий тенденциялари: yurid. fan. dokt. (DSc) avtoref. – Toshkent, 2025. – 68 b.
3. Завгородний А.В., Ахматшина Е.К. Некоторые особенности правового регулирования трудовой деятельности спортсменов и иных работников в сфере профессионального спорта за рубежом // Вестник Санкт-Петербургского университета. Право. – 2025. – № 2. – С. 1170–1185.
4. Ломов А.Н. «Аренда» профессиональных футболистов: некоторые аспекты правового регулирования // Спорт: экономика, право, управление. – 2015. – № 4. – С. 72–80.

5. Виноградов Н.А. Гражданско-правовое регулирование отношений в сфере физической культуры и спорта: выпускная квалификационная работа. – М., 2019. – 95 с.
6. Шевченко О.А. Спортивное право России: учебник для магистров. – М.: Норма, 2020. – 512 с.
7. Алексеев С.В. Спортивное право в системе современного права // Материалы XIII Международной научно-практической конференции. – М., 2023. – С. 45–51.
8. Blackshaw I. Sports Law. – 2nd ed. – The Hague: T.M.C. Asser Press, 2019. – 420 p.
9. Gardiner S., O'Leary J., Welch R., Boyes S. Sports Law. – 5th ed. – London: Routledge, 2018. – 912 p.
10. Smith L. Athlete mobility and loan systems in professional football: PhD Thesis. – University of Leeds, 2021. – 210 p.
11. Olde Wolbers J. The football loan system: legal and economic perspectives. – Amsterdam: Vrije Universiteit, 2020. – 88 p.
12. Mourão P.R. Exploring determinants of international transfers of women soccer players in Portuguese football // Journal of Sports Economics. – 2022. – Vol. 23, No. 6. – P. 601–620.
13. FIFA. Regulations on the Status and Transfer of Players. – Zurich: FIFA, 2023.
14. O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi. Futbolchilar maqomi va transferi bo'yicha reglament. – Toshkent, 2021.
15. Зайцев В.В. Трансфер футболистов и договорные конструкции в профессиональном спорте // Закон. – 2021. – № 9. – С. 98–107.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (6) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).